



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: HAMZAYEV JAMSHID FAYZIDIN O'G'LI

**Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti**

falsafa doktori (PhD)



A'zo: DANISH ATHER

Amity University Tashkent

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260122
Xulosa raqami	1329
Xulosa sanasi	01.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz tumani, Otchopar ko'chasi, 5-a-uy. Guvohnoma: MAS № 0000271, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Axborot tizimlari va texnologiyalari
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60610100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000271, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60610100 – Information Systems and Technologies
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60610100 – Информационные системы и технологии
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Axborot texnologiyalari mutaxassisi, informatika fani o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	400 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz tumani, Otchopar ko'chasi, 5-a-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, ichki me'yoriy hujjatlar, rivojlanish strategiyasi, 5 yillik istiqbolli reja hamda ta'lim dasturini boshqarish va sifatni ta'minlashga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida "Axborot tizimlari va texnologiyalari" ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv va institutsional asoslar shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida belgilangan bo'lib, ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari samarali yo'lga qo'yilgani qayd etildi. Ta'lim dasturini rivojlantirishga qaratilgan 5 yillik istiqbolli rejaning ishlab chiqilgani va unda ustuvor yo'nalishlar, rivojlanish bosqichlari hamda kutilayotgan natijalar belgilanganligi ta'lim dasturining uzoq muddatli va rejali boshqarilishini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholandi. Umuman, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha yaratilgan amaliyot belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida taqdim etilgan ta'lim dasturi, malaka talablari, o'quv reja, fan sillabuslari hamda ta'lim dasturini ishlab chiqish va takomillashtirishga oid hujjatlar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida "Axborot tizimlari va texnologiyalari" ta'lim dasturi amaldagi Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda soha talablariga muvofiq shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va shakllantiriladigan kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ularning ta'lim dasturi mazmunida izchil aks ettirilgani qayd etildi. Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkiloti uchun axborot texnologiyalari sohasiga oid texnik

kompetensiyalarni pedagogik tayyorgarlik bilan uyg'unlashtirish bitiruvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorligini ta'minlashda muhim omil ekani aniqlandi. Ta'lim dasturi yakunida bitiruvchiga "Axborot texnologiyalari mutaxassisi, informatika fani o'qituvchisi" kvalifikatsiyasi berilishi uning axborot texnologiyalari hamda ta'lim sohalarida samarali faoliyat yuritishiga xizmat qilishi qayd etildi. Umuman, ta'lim dasturining mazmuni, tuzilishi va kutilayotgan o'quv natijalari belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida taqdim etilgan ishchi o'quv rejalari, fan dasturlari (sillabuslar), baholash tizimiga oid me'yoriy hujjatlar, akademik halollik bo'yicha ichki hujjatlar hamda o'quv jarayonini tashkil etishga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturi bo'yicha o'quv jarayoni kredit-modul tizimi talablari asosida tashkil etilgani, o'quv natijalarini baholash mezonlari aniq va shaffof belgilanganligi hamda akademik halollik tamoyillarini ta'minlashga qaratilgan ichki me'yoriy hujjatlar amaliyotga joriy etilgani aniqlandi. Ishchi o'quv rejalari va fan sillabuslari ta'lim dasturining maqsadlari hamda kutilayotgan o'quv natijalari bilan uzviy bog'langanligi qayd etildi. Axborot texnologiyalari yo'nalishida laboratoriya mashg'ulotlari, amaliy dasturlash topshiriqlari va loyiha ishlari ulushining yetarli darajada tashkil etilishi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil ekani aniqlandi. Umuman, o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida taqdim etilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, qabul jarayoniga oid nizomlar, talabalar harakatini tartibga soluvchi ichki hujjatlar, talabalarni qo'llab-quvvatlash tizimi hamda tegishli tasdiqlovchi materiallar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturi bo'yicha qabul jarayonlari va talabalar harakatini boshqarish amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida tashkil etilgani aniqlandi. Talabalarni akademik, ijtimoiy va kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlar amaliyotga joriy etilgani, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha zarur tashkiliy choralar ko'rilgani qayd etildi. Axborot texnologiyalari yo'nalishida qabul parametrlarining kompyuter sinflari sig'imi, mavjud moddiy-texnik baza hamda professor-o'qituvchilar yuklamasi bilan mutanosib ravishda belgilanishi ta'lim sifatini

ta'minlashning muhim omillaridan biri ekani aniqlandi. Umuman, talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida taqdim etilgan professor-o'qituvchilar tarkibi, kadrlar salohiyati, shtat birliklari, malaka oshirish va qayta tayyorlash rejalari, yangi ta'lim dasturi uchun kadrlar bilan ta'minlash rejasi hamda professor-o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlariga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar tarkibi va kadrlar salohiyati shakllantirilgani aniqlandi. Professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida malaka oshirish va qayta tayyorlash ishlari tizimli yo'lga qo'yilgani, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlari amalda qo'llanilayotgani qayd etildi. Yangi ta'lim dasturi uchun alohida kadrlar bilan ta'minlash rejasining ishlab chiqilgani ta'lim dasturini barqaror va uzluksiz amalga oshirish, zarur mutaxassislarni o'z vaqtida jalb etish hamda kadrlar bilan ta'minlanganlikni kafolatlash nuqtai nazaridan muhim ijobiy omil sifatida baholandi. Umuman, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida taqdim etilgan moddiy-texnik baza, o'quv va laboratoriya xonalari, kompyuter sinflari, Axborot-resurs markazi, elektron ta'lim resurslari, inklyuziv ta'lim infratuzilmasi hamda raqamli ta'lim muhitiga oid hujjatlar va tasdiqlovchi materiallar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik sharoitlar va axborot-resurs ta'minoti shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zamonaviy o'quv va laboratoriya xonalari, kompyuter sinflari, Axborot-resurs markazi hamda elektron ta'lim resurslari mavjudligi qayd etildi. Inklyuziv ta'lim infratuzilmasiga oid hujjatlarning ishlab chiqilgani va taqdim etilgani alohida ijobiy jihat sifatida baholandi. Shuningdek, axborot texnologiyalari yo'nalishida kompyuter parki, litsenziyalangan dasturiy ta'minot hamda raqamli ta'lim vositalarining muntazam yangilanib borilishi talabalarning zamonaviy kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan

biri ekani qayd etildi. Umuman, moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti va raqamli ta'lim infratuzilmasi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Kompyuter parki va dasturiy ta'minotni muntazam yangilab borish tavsiya etiladi.
- ✓ Ish beruvchilar bilan amaliyot hamkorligini kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Kompyuter sinflari va dasturiy ta'minot bazasini yangilab borish.
- ✓ IT-kompaniyalar bilan amaliyot va loyihaviy hamkorlikni rivojlantirish.
- ✓ Kadrlar bilan ta'minlash rejasini izchil amalga oshirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Termiz davlat pedagogika instituti"da 60610100 – "Axborot tizimlari va texnologiyalari" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv va institutsional asoslar shakllantirilgani, ichki me'yoriy hujjatlar, rivojlanish strategiyasi hamda 5 yillik istiqbolli reja ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda soha talablariga muvofiq ishlab chiqilgani, o'quv jarayoni kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgani va akademik halollik tamoyillari ichki me'yoriy hujjatlar bilan mustahkamlangani qayd etildi. Qabul jarayonlari va talabalar harakatini boshqarish amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida yo'lga qo'yilgani, yangi ta'lim dasturi uchun alohida kadrlar bilan ta'minlash rejasi ishlab chiqilgani hamda ta'lim jarayonini amalga oshirish

uchun zarur kompyuter sinflari, Axborot-resurs markazi, elektron ta'lim resurslari va inklyuziv ta'lim infratuzilmasi mavjudligi tasdiqlandi. Barcha baholash yo'nalishlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan, asosan uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega ekani qayd etildi. Umuman, ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlari bo'yicha belgilangan talablarni qanoatlantirishi tasdiqlandi va dastur akkreditatsiya talablari bo'yicha MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

